

Nafsni sarhisob qilish

Abdulaziz ibn Abdulfattoh qori

Tarjimon: www.islamnuri.com

Barcha maqtoqlar Allohagina xos, U zotni maqtaymiz, Undan madad so'raymiz, Unga istig'for aytamiz, Allohndan nafslarimiz va amallarimiz yomonligidan panoh tilaymiz. Alloh kimni hidoyat qilsa uni adashtiruvchi yo'q, kimni adashtirsa uni hidoyat qiluvchi yo'q. Guvohlik beramanki, bir Allohndan o'zga barhaq iloh yo'q, U yolg'iz va sheriksizdir. Yana guvohlik beramanki, Muhammad sollallohu alayhi va sallam U zotning bandasi va elchisidir.

Ammo ba'd...

Mo'min birodarlar! Nafsni sarhisob qilish har bir musulmon kishidan talab qilingan ishdur.

Nafsni sarhisob qilish juda og'ir ish. Har bir mo'min-musulmon nafsining boshqaruvi va tizginini qo'lda tutishga, uning holatini tartibga solib turishga, toat-ibodatga undaydigan va ma'siyatdan qaytaradigan ishlar vositasida uning shiddatini pasaytirishga harakat qilishi lozimki, bu uning foydani ziyondan ajratib olishiga yordam beradi. Bunga esa faqat nafsini sarhisob qiluvchi insongina qodir bo'ladi.

Nafsni muhosaba qilish til bilan aytishga oson, lekin amalga oshirish juda qiyin ishlardan sanaladi.

Agar inson o'z nafsini sarhisob qilishga urinib ko'rsa, bu ishning og'irligini his qila oladi.

Shuning uchun ham nafsni Rabbining toatiga ko'nikishi va Allohning to'g'ri yo'lida yurishga hamda shaytonning yo'llaridan burilishga odatlanishi uchun nafsni bilan uzluksiz jihodda va davomli kurashda bo'ladi.

Shundagina nafsini qo'lga olishi va sarhisob qilishi engil ko'chadi. Agar shunday bo'lmasa va nafsining tizginini bo'sh qo'yib yuborsa, nafs botilni xush ko'radigan, ma'siyat va munkar ishlarni suyardigan bo'lib qoladi va oxir-oqibat Parvardigor subhanahu va taoloning g'azabiga giriftor etadi.

Inson o'z nafsini sarhisob qilib borgani sayin toat-ibodatni suyardigan va unga intiladigan bo'lib, toat ahliga ulfat bo'lib boraveradi. Aksincha, kishi nafsini sarhisob qilishga qanchalik beparvo qaragani sari toatni shuncha yomon ko'radigan, ma'siyatni suyardigan va ma'siyat ahlini do'st tutadigan bo'lib qoladi.

Alloh taolo aytadi: «**Bas, ana o'shanda kim** (hayoti-dunyoda kufri isyon bilan) **tug'yonga tushgan, va hayoti-dunyoni** (oxiratdan) **ustun qo'rgan**

bo'lsa, u holda faqat jahannamgina (uning uchun) **joy bo'lur!** Endi kim (hayoti-dunyodalik paytida Qiyomat Kuni mahshargohda) **Parvardigorning** (huzurida) **turishi** (va U zotga hisob-kitob berishi)**dan qo'rqqan va nafsini havoyi xohishlardan qaytargan bo'lsa, u holda faqat jannatgina** (uning uchun) **joy bo'lur»** (Van-nazi'at: 37-41).

Alloh taolo o'z egasini yaxshi ishlarda qosirlik qilsa yoki yomonliklar qilsa malomat qiladigan malomatgo'y nafsga qasamyod qilgan: **«Men Qiyomat Kuniga qasam ichurman. Va Men malomatgo'y nafsga qasam ichurmanki,** (hech shak-shubhasiz qayta tirilib, hisob-kitob qilinursizlar!)» (Qiyomat: 1, 2).

Hasan rahimahulloh ushbu oyat mazmunida aytadi: «Allohgga qasamki, mo'min kishi qachon qaramang o'zini malomat qilayotgan, bu so'zim bilan nimani qasd qildim, bu emak-ichmagim bilan nimani maqsad qildim, bu so'zim bilan

nimani iroda qildim, deb o'zini ayblayotgan bo'ladi. Ammo, fojir kimsa o'zini umuman ayblamasdan umr o'tkazadi».

Nafsni sarhisob qilishning foydalaridan biri shuki, u insonni ogohlikka chaqiradi, uni Alloh azza va jallaga yo'liqish va Uning huzurida hisob berishga hozirlanishga undaydi. Shuning uchun Umar roziyallohu anhu aytganlar: Hisob qilinishdan oldin o'zingizni hisob qilingiz, (amallar) taroziga qo'yilishdan oldin nafsingizni taroziga qo'yingiz! Chunki, (bugun) nafsingizni hisob qilishingiz ertaga (qiyomatda) hisobingizni engillashtiradi. Katta hisob-kitob kuniga o'zingizni hozirlang: **«O'sha Kunda sizlar** (hisob-kitob uchun Allohga) **ko'ndalang qilinursizlar — sizlarning biron siringiz maxfiy qolmas»** (Al-haaqqa: 18).

Nafsni sarhisob qilishning foydalaridan yana biri shuki, u insonga Allohning unga bo'lgan ne'matlarini tanitadi, ularga shukr qilishiga va ularni Allohning toatida ishlatishiga yordam beradi, ularni zavol qilib yuborishdan ogohlantiradi: **«Yana Parvardigoringiz bildirgan** (bu so'zlarni) **eslangiz: Qasamki, agar bergan ne'matlarimga shukr qilsangizlar, albatta** (ularni yanada) **ziyoda qilurman. Endi agar kufroni** (ne'mat) **qilsangizlar, albatta azobim ham juda qattiqdir»** (Ibrohim: 7).

Alloh taolo O'zining Kitobida bizlarga jannat-bog' egasi bilan sodir bo'lgan voqeani hikoya qilib beradi. U bir birodariga o'zining bola-chaqasi ko'pligi va mol-dunyosi bisyorligi bilan maqtanganida birodari unga eslatgan so'zlarni zikr qiladi: **«Sen bog'ingga kirgan paytingda: «Alloh xohlagan narsagina**

(bo'lar), bor kuch-quvvat yolg'iz Alloh bilandir», desang edi! Agar sen meni mol-davlat va bola-chaqa jihatidan o'zingdan kamroq deb bilsang, shoyadki, Parvardigorim menga sening bog'ingdan yaxshiroq (bir bog') ato etar (sening bog'ingga esa) osmondan chaqmoqlar yuborur, bas, u sip-silliq erga aylanib qolur. Yoki uning suvi (erga singib ketib, sen u)ni istab ham topa olmay qolursan» (Kahf: 39-41).

Nafsni sarhisob qilish mo'minga Allohning sinov va imtihonlar vositasida bergan ne'matlarini eslatadi. Shu bilan u bularga sabr qiladi va Alloh taolodan ajru savob umid qiladi.

Umar roziyallohu anhu aytganlaridek: «Menga qachon biron musibat etgan bo'lsa, o'shaning ostida Allohning menga ato etgan uchta ne'matini bildim:

1) Alloh taolo uni menga engil qildi, vaholanki U meni bundan ko'ra kattaroq musibaga duchor qilishga qodir edi.

2) Alloh taolo u musibatni dunyoimda qildi, dinimda qilmadi.

3) Alloh taolo shu musibatim uchun qiyomatda menga ajru savoblar beradi».

Nafsni muhosaba qilishning foydalaridan yana biri shuki, bu narsa nafsni chiniqtirishga, uni to'g'ri yo'lda yurgizishga, uning istak-mayllarini cheklashga, taassubi va takabburligini sindirishga yordam beradi. Qay bir insonni o'z nafsini muhosaba va nazorat qilib yurganini kuzatgan bo'lsangiz, uni albatta Parvardigorining buyruqlariga ijobat qilishga va Uning g'azabini keltiradigan ishlardan ehtiyot bo'lishga qattiq harakat qilishini, haqni bilsa unga qaytishga shoshilishini topasiz. Aksincha, qay bir inson nafsining tizginini bo'sh qo'yib yuborgan bo'lsa va uni muhosaba qilib turmasa, nafsni havosi va istak-mayllari unga g'olib bo'lib, ma'siyat va munkar ishlar botqog'iga botib borishini ko'rasiz. Borib-borib bunday kishining hayotiy o'lchov va me'yorlari o'zgarib, izdan chiqib ketadi va Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ogohlantirgan holatga tushib qoladi: «Hatto, agar itoat qilingan baxillikni, ergashilgan havo nafsni, afzal ko'rilgan dunyoni va har bir kishining o'z ra'yi bilan g'ururlanishini ko'rsangiz, o'z nafsingizga mahkam bo'ling va ommadan o'zingizni uzoq qiling» (Abu Dovud (4341), Termiziy (3058), Ibn Moja (4014) rivoyatlari).

Nafsni muhosaba qilishning foydalaridan yana biri shuki, inson shu bilan o'z nafsining miqdorini bilib oladi va nafsini isloh qilish uchun eng munosib

yo'lni tanlab oladi. Nafsning islohi esa faqat Alloh taboraka va taoloning Kitobida kelgan va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarida bayon qilingan, qolaversa muxlis, solih, amalli ulamolardan bilingan ishlar bilan hosil bo'ladi.

Rivoyat qilishlaricha, imom Shofeiyy rahimahulloh qattiq betob bo'lib qolganlarida: «Ey Allohim, agar Sening roziliging shunda bo'lsa, bu dardimni ziyoda qilgin», deb duo qildilar. U kishining bu so'zlari Idris al-Xavloniy rahimahullohning quloqlariga etib bordi va: «Ey Abdulloh! Men ham, siz ham imtihon ahlidan (ya'ni, Allohning sinoviga bardosh bera oladigan kishilardan) emasmiz», deb xabar yubordilar. Shundan so'ng imom Shofeiyy rahimahulloh u kishiga odam yuborib: «Ey Abu Umar, Allohdan menga ofiyat so'rab duo qiling», dedilar.

Inson o'z nafsini muhosaba qilishni istasa, nafsida Allohdan qo'rqish, Uning azobidan xavf qilish va Uning huzuridagi ajru savoblardan umidvorlik paydo bo'lishini istasa, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning siyratlarini, u zotning ashoblari siyratlarini va har bir zamonda ularga yaxshilik bilan ergashgan zotlarning siyratlarini ko'p o'qisin. Ular o'z nafslariga nisbatan qanday o'rinda turishganini, nafslarini qanday muhosaba qilishgan ekanini o'qib o'rganishi shoyad uni ham o'z nafsini sarhisob va nazorat qilishiga yordam bersa ajab emas.

Abdulloh ibn Ma'sud roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Menga Qur'on o'qib bering», dedilar. «Qur'on sizga nozil etilgan bo'lsa-yu, men sizga o'qib beraymi?», dedim. U zot: «Men uni birovdan eshitishni yoqtiraman», dedilar. Men «Niso» surasini o'qib quyidagi oyatgacha etdim: «(Ey Muhammad alayhis-salom), **biz har bir ummatdan** (o'sha ummatning Payg'ambarini) **guvoh keltirganmizda va Sizni ana ularga qarshi guvoh qilganimizda ularning holi ne kechur?!**» (Niso: 41). Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Bo'ldi, kifoya», dedilar. Qarasam Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ko'zlaridan yosh oqayotgan ekan» (Buxoriy «Sahih»da (4/1673) rivoyat qilgan).

Agar nafsni muhosaba qilish qalblarimizdan mahkam o'rin olganida edi, ko'zlarimiz Allohning qo'rquvidan va Uning huzuridagi narsalar umidida tinmay yosh to'kadigan bo'lib qolardi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning halifalari Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu haqlarida rivoyat qilinishicha, bir kun Umar ibn Xattob

roziyallohu anhu u kishining huzurlariga kirsalar, hazrat Abu Bakr o'z tillarini tortib, qiynayotgan ekanlar. «Bu nima ish, ey Abu Bakr?», deb so'rganlarida u kishi: «Meni halokatlarga tushirgan narsa shu bo'ladi», degan ekanlar.

U kishining xalifalik davrlarida Yamandan kelgan bir qavm Qur'on eshitib yig'laganlarida u kishi: «Biz ham shundoq edik, endi dillarimiz qotib ketdi», deganlar.

Umar roziyallohu anhu aytadilar: «Agar uch narsa bo'lmaganida: Alloh uchun peshonamni sajdaga qo'yishim bo'lmaganida, yaxshi so'zlarni xuddi yaxshi xurmolarni terib olingani kabi terib olinadigan majlislar bo'lmaganida, Alloh azza va jalla yo'lida yurish qilishim bo'lmaganida, allaqachon Allohga yo'liqqan bo'lishni istardim».

Yana aytadilar: «Istardimki, xonadonimda boqilayotgan bir qo'chqor bo'lsam, yaxshi semirganimdan so'ng xonadonim uchun suyumli bo'lgan mehmonlar uchun so'yilib, bir qismimni qovurib ularga taqdim qilsalar, bir qismimni quritib esalar, qaniydi inson bo'lmasam». Foruq roziyallohu anhuning, ya'ni haq bilan botil o'rtasini uzil-kesil ajratib beruvchi zotning ahvollari ana shunday edi!

Badanlariga tig' zarbasi urilib, og'ir holatda yotganlarida huzurlariga Ibn Abbos roziyallohu anhum kirib: «Ey amirul-mu'miniyn, xursand bo'ling! Zero, Alloh siz sababli ko'p o'lkalarni fath qildi, siz bilan munofiqlikka barham berdi, siz bilan rizqlarni mo'l-ko'l qildi», dedilar. Hazrat Umar: «Amirlik borasida meni maqtamoqdamisiz, ey Ibn Abbos?», deb so'radilar. «Ha, Allohga qasamki, undan boshqa narsalarda ham», deb javob berdilar. Shunda Umar roziyallohu anhu: «Allohga qasam ichib aytamanki, men unga (ya'ni amirlikka) qanday kirgan bo'lsam, xuddi shunday holda, na savob, na gunoh topmagan holda chiqqan bo'lishni istardim», dedilar.

U kishi yana aytadilar: «Jonim Qo'lida bo'lgan Zotga qasamki, agar odamlar ichida bir jarchi jar solib: «Ey odamlar! Sizlar hammangiz jannat ahlidan bo'lasiz, ichlaringizdan faqat birgina odam jannatga kirmaydi», desa, o'sha odam men emasmikinman, deb qo'rqaman. Agar bir jarchi jar solib: «Ey odamlar! Barchangiz do'zaxga kirasiz, faqat bir kishi qutulib qoladi», desa, o'sha odam men bo'larmikinman deb umid qilaman».

Alloh taolo bizlarni ham u zotlarga ergashishga va ular davrasida qayta tirilishga nasib etsin.

Usmon roziyallohu anhu aytadilar: «Agar jannat bilan doʻzax oraligʻida boʻlsam-u, qaysi biriga amr etilishimni bilmasam, qay birining ahlidan boʻlishni bilmasdan turib kul boʻlib ketsam mayli edi». (Abu Nuʼaym «Hilya»da (1/60) keltirgan).

Yana aytadilar: «Allohgā qasam ichib aytamanki, johiliyatda ham, islomda ham zino qilmadim. Islom mening hayoimni ziyoda qildi».

Aliy roziyallohu anhu tunning oxirgi soatlarida bedor boʻlar va soqollarini tutamlab, dunyoga xitob qilib aytardilar: «Sen hali menga oqib keldingmi?! Menga oʻzingni pardoqlab koʻrsatdingmi?! Hayhot, hayhot! Bor, mendan boshqasini alda! Men seni uch taloq qildim. Sening tamaing haqir, majlising xatarli. Bor, mendan boshqasini alda! Hayhot! Oh, (oxirat uchun) ozuqa muncha kam boʻlmasa, safar naqadar yiroq boʻlmasa, yoʻl naqadar xatarlarga toʻla boʻlmasa!» (Abu Nuʼaym «Hilya»da keltirgan).

Ulardan boshqa sahobalar, tobeinlar va barcha zamon va makonlarda ularga yaxshilik bilan ergashgan zotlar ham bola-chaqa va mol-dunyo foyda bermaydigan kunga – oxiratga qaytarilishdan oldin oʻzlarini ana shunday muhosaba qilardilar.

Allohgā oʻz zaifligimizni arz qilamiz, zaifligimizga rahm qilishini, xatolarimizni magʻfirat qilishini Undan yolvorib soʻraymiz. Oʻzim uchun ham, boshqa musulmonlar uchun ham Buyuk Allohgā istigʻfor aytaman. U gunohlarni kechiruvchi, Rahmli Zotdir.

Moʻmin birodarlar! Agar nafslarnı sarhisob qilib turish boʻlganida ahvol bugungidan butunlay boshqacha boʻlardi, insonlar ichida yaxshiliklar koʻpaygan, bandalar va mamlakatlarga salohiyat hukmron boʻlgan boʻlardi. Ammo, hozirda juda koʻpchilik insonlar nafslarini muhosaba qilishdan gʻofil qolib ketganlar.

Agar nafslarnı sarhisob qilib turish boʻlganida gunohu maʼsiyatlarnı koʻrmagan boʻlardingiz, shirku nifoqni koʻrmagan boʻlardingiz, gʻiybatu chaqimchiliklarnı koʻrmagan boʻlardingiz, ribo, zino va mast qiluvchi ichimliklarnı koʻrmagan boʻlardingiz, na sagʻira va na kabira gunohlarnı koʻrmagan boʻlardingiz, yolgʻon qasam, aldov, xiyonat, javru zulm va adovatni koʻrmagan boʻlardingiz.

Agar nafslarnı muhosaba qilish boʻlganida moliyaviy muammolar paydo boʻlmasdi, ilgarigi zamonlarda umuman koʻrilmagan munkar ishlar yuzaga

chiqmasdi, musulmonlar ichida bu qadar bo'linish va ajralishlar vujudga kelmasdi.

Agar odamlar nafslarini sarhisob qilishsa va ularni Alloh taboraka va taolo qo'ygan o'rinlariga qo'yishsa, holat butunlay boshqacha bo'lardi. Juda ko'p odamlar tijoratining hisob-kitobini chiqarmaguncha uyqusida halovati bo'lmaydi, foydaga kirdimi, ziyonga kirdimi, bilmagunicha ko'ziga uyqu kelmaydi. Ayrim paytlarda biron ishi esiga tushib ketsa, to'shagidan turib ketib, shu turganicha tun bo'yi mijja qoqmay ham chiqadi.

Ba'zi odamlar bo'ladiki, tijoratda ko'rgan ziyoniga to'lg'onib, tunlari uxlolmay chiqadi.

Hatto, shunday insonlar ham bo'ladiki, Alloh taolo bir birodariga in'om qilgan qandaydir bir ne'matni ko'rib, hasaddan o'zini qo'ygani joy topolmay qoladi. Ayrim hollarda bu ne'mat Alloh taolo tomonidan imtihon va sinov ham bo'lib qoladi.

Ayrim insonlar esa o'z fikriga mahkam yopishib olib, havo nafsiga moyil bo'lib va taassub qilib, haqni tashlab botilni ixtiyor qiladi.

Agar nafslarni muhosaba qilish bo'lganida, shu va bundan boshqa Allohning g'azabiga duchor qiladigan ishlarni ko'rmagan bo'lardingiz va musulmonlarning ahvoli ancha yaxshi holda bo'lardi. Musulmonlarning ahvoli o'nglanishi uchun ular albatta o'z nafslarini sarhisob qilib turishlari, barcha narsadan boxabar va hech narsa Undan maxfiy qolmaydigan, g'ayblarni biluvchi Zot huzurida turish va Uning hisob-kitobiga hozirlanishlari lozim bo'ladi.

Shunday ekan, Allohdan qo'rqingiz ey Allohning bandalari, naflaringizni hisob-kitob va nazorat qilingiz, ularni Allohning amrlariga bo'ysundiringiz. Qani, hech bo'lmasa, shu o'tgan bir haftangizni bir hisob qilib ko'ring-chil! Kim nafsining toatlarini hisob qilib, ularni yana ham ziyoda qildi? Kim nafsining ma'siyatlarini hisob qilib, ulardan tavba qildi? Kim nafsini hisob qilib, Allohning o'ziga ato etgan ne'matlarini yodga oldi va ularning shukrini bajo keltirdi? Kim nafsini muhosaba qilib, qalbida Allohdan qo'rquv uyg'ondi va ko'zlari yosh to'kdi? Zotan, qiyomat kuni ikkita ko'zga: Allohdan qo'rqib yosh to'kkan ko'zga va Alloh yo'lida qo'riqchilik qilib kechani o'tkazgan ko'zga do'zax o'ti etmaydi.

Allohnin bandasi va paygʻambariga salavot va salomlar aytingiz. Alloh taolo aytadi: «**Albatta Alloh ham, Uning farishtalari ham paygʻambarga duoyu salavot ayturlar. Ey moʻminlar, sizlar ham u zotga salavot va salomlar aytinglar!**» (Ahzob: 56).

Ey Parvardigor! Oʻzing paygʻambarimizga va u zotning ahli oilasiga xuddi Ibrohim va u zotning ahli-oilasiga salovotu salomlar yoʻllaganingdek salovotu salomlar yoʻllagin.

Ey Parvardigor! Paygʻambarimizning ashoblaridan, tobeinlardan va to qiyomatgacha ularga yaxshlik bilan ergashgan kishilardan Oʻzing rozi boʻlgin. Bizlarni ham Oʻz fazlu karaming va magʻfirating bilan burkagin ey rahmlilarning rahmlirogʻi boʻlgan Zot!

Madina Munavvara

3/12/1406h.

18/05/2009m.